



RAQAMLI MEDIADA ONLAYN NASHRLARNING AHAMIYATI VA IXTISOSLASHUVI

Ilmiy rahbar: O`zXIA katta o`qituvchisi, Phd Madina Nuritdinova
Magistrant: O`zXIA internet jurnalistika fakulteti talabasi Shohsanam Tursunboyeva

Annotatsiya: Ushbu maqolada bosma nashrlar o`mini egallayotgan onlayn nashrlarning ahamiyati va afzalliklari haqida so`z yuritilgan bo`lib, ayni jarayondagi ixtisoslashuv haqida ham kichik o`rganishlar keltirilgan.

Kalit so`zlar: onlayn, nashrlar, virtual nashrlar, raqamli nashrlar, bosma nashrlar, ixtisoslashuv


Internetning rivojlanishi har bir sohada reformalarga sabab bo`lmoqda. Jumladan, jurnalistikada ham media yo`nalishi yangi bosqichga o`tdi. Bunday global revolyutsiyalar zamonga xos ravishda axborot uzatish va qabul qilishni raqamlashtirmoqda. Ayni raqamli media sohasida onlayn nashrlar: turli xil sferadagi jurnallar, gazetalar, komikslar va hakazolar raqamli tarzda transformatsiyalashib axborot iste`molchilariga taqdim etib kelinmoqda. Tadqiqotlarga ko`ra, bosma jurnallarning ilk virtuallashuvi 1994-yil Britaniya jurnali Daily telegraph news bilan yuz beradi¹⁷. Bir yildan so`ng esa bu raqam dunyo bo`ylab 150 taga yetganligini ushbu tadqiqotda ko`rish mumkin. Hozirga qadar bu raqamlar to`xtovsiz ravishda o`smoqda. Xalqaro statsitikaga ko`ra, ayni vaqtda butun dunyoda onlayn jurnallar soni 19 mingdan ziyod bo`lib, mazkur virtual jurnallar soni 131 ta davlat miqyosida 80 tilda taqdim etilgan ma`lumotlarga asoslangan holda ko`rsatilgan¹⁸. Bu ko`rsatkich va insonlarning talabi doimiy ravishda o`sib bormoqda. Internet va jurnalistikaning o`zaro integratsiyalashuvi gazeta, jurnallarning raqamlashishiga turtki bo`ldi.

¹⁷ [ResearchGate](#)

¹⁸ [Directory of Open Access Journals - DOAJ](#)



Ma`lumotlarga ko`ra¹⁹, onlayn nashrlar, virtual nashrlar va raqamli nashrlarning hammasi bir ma`noni ifodalovchi atamalar bo`lib, o`zbek segmentida ”Afisha.uz”, “Platina.uz”, “Xabar24.uz” kabilar bunga yaqqol misol bo`la oladi. Ayni vaqtda bosma nashrlar faoliyati kamayib onlayn nashrlar faoliyati trendga aylanayotganini kuzatishimiz mumkin²⁰. 2022-yil, 1-yanvar holatiga ko`ra, O`zbekistonda 592 ta bosma gazeta mavjud bo`lib²¹, quyidagi diagrammada buni aniqroq ifodalangan va bu statistikadagi raqamlar har yili iste`mol talabi va ehtiyojiga qarab o`zgarib turibdi²²



¹⁹ [What is Online Publications? - Definition, Advantages, And More \(computertechreviews.com\)](https://www.computertechreviews.com/what-is-online-publications/)

²⁰ [Importance of Publishing Online Magazines | by digitalmagazineblog | Medium](https://medium.com/digitalmagazineblog/importance-of-publishing-online-magazines)

²¹ <https://stat.uz/uz/matbuot-markazi/qo-mita-yangiliklar/26535-hududlar-bo-yicha-gazetalar-soni-qancha>

²² <https://daryo.uz/2022/01/21/ozbekistonda-matbuot-dokonlari-nega-kamaymoqda-gazeta-va-jurnallarga-talabning-pasayishida-dokonlarning-aybi-kattami/>



Ma'lumki, bosma nashrlar o'z o'rnini onlayn nashrlarga allaqachon bo'shatib bermoqda. Raqamlarga murojaat qiladigan bo'lsak, bugungi kunda O'zbekiston Respublikasida faoliyat ko'rsatayotgan ommaviy axborot sifatida davlat ro'yxatidan o'tkazilgan vebsaytlar soni davlat reyestriga ko'ra²³, 749 tani tashkil etmoqda. Bu sonlar onlayn nashrlarning ahamiyati va dolzabligi jadallik bilan o'sib borayotganligini yaqqol ifoda etadi. Mazkur jadal taraqqiyotning asosida onlayn nashrlarning insoniyatga keltirayotgan qulayliklari, xususan, axborot qabul qilishdagi tezkorlik, ma'lumotlarning ko'pligi va boshqa axborotlarga osongina havola orqali o'tish mumkinligi kabilar yotibdi. Onlayn nashrlarning taraqqiyoti uning ixtisoslashuviga ham yo'l ochib bermoqda. Xususan, texnologik yangiliklarni tezkor yetkazishga ixtisoslashgan "Spot.uz", diniy axborot yetkazuvchi "Islom.uz", "Azon.uz", internet OAVning rus tiidagi segmentida "Gazeta.uz", "Podrobna.uz" kabilar o'zining keng ko'lamdagi auditoriyasiga ega bo'lmoqda. Bu kabi ixtisoslashuvlar maqsadli auditoriyani aniqlab axborotni yetkazishdagi professionallikka ham sabab bo'ladi.

Jurnalistikada 2 xil amaliy-nazariy qutb bo'lib, bular universallashtirish tarafdorlari bilan ixtisoslashuv tarafdorlari o'rtasidagi amaliy, nazariy raqobat bilan yuzaga chiqib kelmoqda. Agar tarixga yuzlanadigan bo'lsak, jurnalistikaning ilk ixtisoslashuvi 1980-1990 – yillarda Fransiyada²⁴ ro'y bergan biznes sohasidagi ixtisoslashuvda ko'rish mumkin. O'zbekistonda esa ixtisoslashuv jarayonlari hali ham davom etmoqda. Bu jarayonni izohlash uchun Fransiya ta'lim va media tadqiqotchisi Jean Padioleuning quyidagi nazariyasi ancha o'rinli: "Mavzuni bilishdagi ixtisoslashuv va o'quvchi uchun uni umumlashtirish jurnalistning jamoatchilik oldidagi muhim vazifasidir"

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, onlayn nashrlarning roli va ixtisoslashuvi jamiyat hamda uning taraqqiyoti asosida yuz bermoqda. Ixtisoslashgan internet nashrlarda, asosan, diniy yo'nalishga ixtisoslashgan nashrlarda professionallik va axborotning

²³ <https://data.egov.uz/data/6163d6d1ec71c8d0843839bf>

²⁴ (1) [Sub-Fields of Specialized Journalism | Dominique MARCHETTI - Academia.edu](#)



ishonchlilik darajasi ustunroq bo`lib, har bir ixtisoslashuv o`zining o`ziga xos xususiyatlari bilan boshqa ixtisoslik yo`nalishlaridan ajralib turadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati

1. ¹ [ResearchGate](#)
2. ¹ [Directory of Open Access Journals – DOAJ](#)
3. ¹ [What is Online Publications? - Definition, Advantages, And More \(computertechreviews.com\)](#)
4. ¹ [Importance of Publishing Online Magazines | by digitalmagazineblog | Medium](#)
5. ¹ <https://stat.uz/uz/matbuot-markazi/qo-mita-yangiliklar/26535-hududlar-bo-yicha-gazetalar-soni-qancha>
6. ¹ <https://daryo.uz/2022/01/21/ozbekistonda-matbuot-dokonlari-nega-kamaymoqda-gazeta-va-jurnallarga-talabning-pasayishida-dokonlarning-aybi-kattami/>
7. ¹ [\(1\) Sub-Fields of Specialized Journalism | Dominique MARCHETTI - Academia.edu](#)